Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321027

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

4. Hududiy integratsiyani kuchaytirish: ITBning Markaziy Osiyo mintaqasi uchun qo'shma loyihalariga qo'shilish orqali O'zbekiston o'zining iqtisodiy salohiyatini oshirishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonning ITB bilan hamkorligi hozirgi vaqtda keng qamrovli va samarali bo'lib, turli sohalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, elektroenergiya, qishloq joylardagi infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida amalga oshirilgan loyihalar mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Kelgusida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va loyihalarni kuzatish tizimini kuchaytirish.

2. Kredit stavkalarini yanada moslashuvchan qilish yoki subsidiyalarni kengaytirish.

3. Yangi yo'nalishlar – yashil iqtisodiyot, raqamli infratuzilma va hududiy integratsiya loyihalarini joriy etish.

Shunday qilib, ITB bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishiga zamin yaratadi va xalqaro maydonda uning mavqeini mustahkamlaydi.

O'ZBEKISTON IQTISODIYATINI MODERNIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASH SHAROITIDA FAN PEDAGOGIKA TA'LIM VA INNOVATSIYALARNING JIHATLARI

Sa'dullaeva Mahfuza Husenovna
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Tarix kafedrasi o'qtuvchisi
Kidirbaeva Gulima Malik qizi
CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti Qozoq tili adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish jarayonida ta'lim, pedagogika va innovatsiyalarni joriy etishning ahamiyatini yoritadi. Ta'lim va pedagogika sohasi iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlashni ta'minlaydi. Innovatsiyalar esa pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va mamlakat iqtisodiyotini texnologik jihatdan rivojlantirish uchun zarur vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar:O'zbekiston iqtisodiyoti, innovatsion yondashuv, modernizatsiya, fan, pedagogika, ta'lim, innovatsiyalar, iqtisodiy islohotlar, kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimi, barqarorlik, barqaror rivojlanish, integratsiya pedagogik texnologiyalar.

Annotation: This topic highlights the significance of education, pedagogy, and the implementation of innovations in the process of modernizing and ensuring the sustainable development of Uzbekistan's economy. The fields of education and pedagogy provide the preparation of personnel equipped with modern knowledge and competencies, which are essential for the successful execution of economic reforms. Innovations serve as a crucial tool for effectively organizing pedagogical processes and fostering technological advancement within the country's economy.

Keywords: Uzbekistan's economy, innovative approach, modernization, science, pedagogy, education, innovations, economic reforms, workforce development, education system, sustainability, sustainable development, integration, pedagogical technologies.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Sa'dullaeva Mahfuza Husenovna, Kidirbaeva Gulima Malik qizi (2024). O'zbekiston iqtisodiyatini modernizatsiya va barqaror rivojlantirishni ta'minlash sharoitida fan pedagogika ta'lim va innovatsiyalarning jihatlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321027

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish nima? barqaror rivojlantirishni ta’minlash uchun nima qilish kerak? Degan hozirgi kundagi dolzarb savollarga javob ishlaylik bu mamlakat iqtisodiy tizimini zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar va ilg‘or boshqaruv usullari bilan rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon O‘zbekistonni iqtisodiy jihatdan yanada raqobatbardosh va samarali qilishga qaratilgan. Bu yo‘lda katta o‘ringa ega modernizatsiya orqali biz ta’lim sifatini va aholining hayot tarzini yengillashtirsak bo‘ladi. Oddiy qilib tushuntirsam. Texnologiyalarni yangilash ya’ni zavodlar, fabrikalar va ishlab chiqarish korxonalarida eski texnologiyalar o‘rniga zamonaviy uskunalarni joriy qilish orqali mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish tezligini kuchaytiramiz.

Raqamlashtirish orqali bo‘lsa davlat xizmatlari, moliya va savdo sohalarida kompyuter tizimlari va internetdan ko‘proq foydalanish. Bu jarayonni tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi. Investitsiyalar jalb qilish esa Chet el va mahalliy investorlardan pul jalb qilib, yangi korxonalar ochish va mavjudlarini kengaytirishga yordam beradi bu esa nafaqat yangi korxonalar balki turizm sohasining rivojlanishi boshqa davlatlardan ya’ni tashqaridan pul kelishini taminlaydi. Infratuzilmani rivojlantirish bo‘lsa yangi yo‘llar, temiryo‘llar, aeroportlar va energetika tizimlarini qurish orqali tovarlar va xizmatlarni tez va arzon yetkazib berishga yordam beradi. Kadrlar malakasini oshirish: Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega ishchi kuchini tayyorlash. Bu orqali yangi texnologiyalarni ishlata oladigan mutaxassislar soni ortadi. Albatta bu mening fikrim. Lekin bularning barchasi O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishini ta’minlaydi va turmush darajasini yaxshlaydi deb bilaman. Keling endi har bir sohaga birma-bir to‘xtaladigan bo‘lsak Maqolada yozish borasida ilmiy texnikaviy sohani tahlil qilish asosida men shu paytgacha respublikada modernizatsiya yuqoridan va birinchi navbatda texnologik sohada amalga oshirilganligi va Institutsional islohotlar esa cheklangan tarzda amalga oshirilganligiga amin bo‘ldim. Ularning muhim maqsadi tadbir korlik subyektlari va aholining keng qatlamlarining innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat. Bundan tashqari, iqtisodiyotda bozor mexanizmining keying samaradorligi yuqoridan ham, pastdan ham boshlangan institutsional o‘zgarishlarning to‘liqligiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish ham texnologik, ham institutsional jarayon bo‘lib topiladi. Davlat organlarining jamiyatda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish, innovatsion mafkura va innovatsion tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha chora tadbirlari institutsional muhitni isloh qilishga xizmat qilishi kerak. Lekin hozirgi kundagi shu kabi tadbirlarda oldi qoshdi gaplar va zerikarli ruhda o‘tkazilish uchun ham tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish juda ham sekinlik bilan shakillanyapti. Albatta bu mening shaxsiy fikrim. Hozirgi mavzu boyicha Institutsional muhit shu termin juda ko‘p ishlatiladi. Institutsional muhit nima? Degan savolga ozimga qoydim va biroz izlanishlardan keyin Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm” kafesrasi dotsenti Kamilova Mashkura Xidoyatovnaning ilmiy ishlaridan birida javob to‘pdim. Institutsional muhit bu mamlakatning innovatsion salohiyatini amalga oshirish uchun institutsional sharoit yaratuvchi rasmiy va norasmiy institutlar majmuasidir. Ikkinchisi quyidagi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topadi: ilmiy muassasalar, shuningdek, tadqiqot va ishlanmalar bilan shug‘ullanuvchi xodimlar soni; texnologik innovatsiyalar qiymati; oliy ta’lim muassasalari va ulardagi talabalar soni; ixtirolar, ro‘yxatga olingan patentlar soni; fan nomzodlari va doktorlari soni, ilmiy tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bilan shug‘ullanuvchi xodimlar sonining ko‘rsatkichi mamlakatimizda patent, innovatsiya va tadbirkorlik faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. O‘z navbatida patentlar nashrlar soni

bilan bir qatorda bilim yaratish ko‘rsatkichidir [152]deydi. Yani bu orqali ular ham Pedagogik texnologiyaning ro‘li katta ekanligini nazarda tutgan.

Pedagogik texnologiya - bu o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish tizimi bo‘lib, u ta’limning zaruriy sifatini ta’minlaydi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etishning muhum va asosiy metodidir. Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib hisoblanadi. Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda ta’lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo‘yuvchi o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning xamma jarayonlarini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodi hisoblanadi. Ta’lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o‘tish, so‘nngi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlar o‘tkazish, mutaxasislik bo‘yicha, masalan kimyo sohasidagi so‘nggi innovatsiyalar haqida ma’lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o‘tish talabalarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo‘ladi. Talaba sifatida yuqorida aytilgan so‘zlar biz talabalarni darsga bo‘lgan qiziqishimizni orttirish bilan cheklanmay bizning bo‘shqalar bilan raqobatimizni kuchaytiradi va bizning yashirin iqtidorlarimiz uygo‘nibga majburlaydigan metoddir. Shuni aytish lozimki agar biz talabalar harakattan toktamastan o‘z ustilarida ishlaydigan bo‘lsa albatta ularni rag‘batlantirish kerak. Chunli hozirgi kunda hamma narsa motivatsiya orqali bo‘ladi. Men bu maqolam orqali O‘zbekiston iqtisodiyatini modernizatsiya va barqaror rivojlantirishni ta’minlash sharoitida fan pedagogika ta’lim va innovatsiyalarning jihatlari mavzusiga o‘z tushunchamni va modernizatsiyaning afzalliklari va modernizatsiya yo‘lidagi kichik bo‘lgan proseslarni aytib otdim

Xulosa O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish jarayonida fan, ta’lim va innovatsiyalarni uzviy ravishda rivojlantirish juda muhimdir. Zamonaviy texnologiyalar va Innovatsion ta’lim orqali izlanuvchan kadrlar tayyorlashning ahamiyati katta ekanligi. Ta’lim sifatini yuqori qilish maqsadida uni modernizatsiya qilish orqali O‘zbekistonning iqtisodini nafaqat yuqoriga chiqarish balki boshqa dunyoning buyuk davlatlari bilan raqobatga erishishi mumkin

Foydalangan adabiyot

1.[1] Dotsenti Akhmedova Yulduz Alisherovna va oqituvchi Akhmedova Yulduz Alisherovna, O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYALASHTIRISH VA INNOVATSION RIVOJLANIS HNING INSTITUTSIONAL ASPEKTLARI nomli maqolasi jurnal ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2022, 1(149)

2. O‘zbekistonning ta’lim tizimi va iqtisodiy rivojlanish: innovatsiyalar va strategiyalar, Tashkent: "Iqtisodiyot va ta’lim" nashriyoti, 2022.

3. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. “Yangi pedagogic texnologiyalar” darslik 15-20b.

4. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” o`quv uslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.

[152] Dotsenti Akhmedova Yulduz Alisherovna va oqituvchi Akhmedova Yulduz Alisherovna, O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MODERNIZATSIYALASHTIRISH VA INNOVATSION RIVOJLANIS HNING INSTITUTSIONAL ASPEKTLARI nomli maqolasi jurnal ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2022, 1(149)